

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI O‘STIRISH

Normamatova Sevinch

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan bo‘lib, fikrlash turlarini o‘stirish, xotirani mustahkamlash va tafakkurni faollashtirishga xizmat qiluvchi topshiriq hamda yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, intellektual rivojlanishga xizmat qiluvchi metodik usullar, neyro-mashqlar, gamifikatsiya va metakognitiv texnikalar orqali bolalarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar : fikrlash, rivojlanish, tanqidiy fikrlash, metodikalar, o‘yinlar, testlar, xotira, muammolar, boshlang‘ich ta’lim, ijodiy fikrlash, pedagogik tafakkur.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida “aqli bola” tushunchasi yangicha talqin qilinmoqda. Endi bu atama faqat darsda “besh” oladigan emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, xotirasi kuchli, ijodiy yondasha oladigan bolani bildiradi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq bolalarning intellektual koefitsienti (IQ) ni shakllantirish – nafaqat zarurat, balki davr talabi hamdir. An’anaviy darslik va topshiriqlar ko‘pincha reproduktiv fikrlashni – ya’ni yodlab olish va qayta aytishni talab qiladi [1]. Ammo IQ o‘sishi uchun bolani tahlil qilishga, solishtirishga, sabab-oqibatni ko‘rishga o‘rgatish muhim. Shunday topshiriqlar ishlab chiqish kerakki, ular: Ko‘p bosqichli fikrlashni talab qilsin. (Masalan: “Agar Sen bilan Men bog‘da bo‘lsak, lekin faqat bittamiz olma topgan bo‘lsak, bu qaysi holatda mumkin?”). Mantiqiy zanjirlarni qurishga majbur qilsin. (Jumlanai to‘ldiring: “Agar mushuk sichqon tutsa, it ____?”). Noan’anaviy savollar orqali ijodiy fikrni rag‘batlantirsin. (Masalan: “Agar sen soatni ixtiro qilgan bo‘lsang, uni qanday ishlashini tushuntirgan bo‘larding?”) . Boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar – intellektual salohiyatning eng faol shakllanadigan davrida bo‘lishadi [2]. Ularning tafakkurini jonlantirish, xotirasini mustahkamlash, fikrlash doirasini kengaytirish uchun o‘yin, mantiqiy topshiriq va hayotiy kontekstdagi savollar asosida yaratilgan yangi avlod didaktik kitoblari zarur. Bunday kitob – bu kelajakdagi aql bilan qurollangan avlodning qo‘llanmasidir. Har bir sahifasi bolaning miyasi uchun “fikr yugurishi”, har bir mashqi – intellektual sakrash! IQ (intellektual koefitsient) ko‘p jihatlardan iborat:

- ✓ Mantiqiy tafakkur
- ✓ Xotira hajmi va sifati
- ✓ Diqqatni jamlash qobiliyati

- ✓ Ijodiy fikrlash
- ✓ Muammoni hal qilish tezligi

Shuning uchun faqat “aqlli savollar” emas, balki ko‘p funksiyali topshiriqlar bilan ishlash muhim. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning miyasi har kuni kichik yangiliklar bilan shug‘ullansa, neyron aloqalar kuchayadi [3]. Buni ta‘minlash uchun ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan kitobga: “Bugun miyangni sinab ko‘r!” bo‘limi kiritish mumkin. Masalan: “O‘ng qo‘ling bilan ism-sharifingni yoz, keyin chap qo‘ling bilan yozib ko‘r – farqni his et! “Neyro-yugurish”: qarama-qarshi topshiriqlar – “O‘ng qo‘ling bilan chap qulog‘ingni ushla, keyin teskari harakatni qil. Bu kichik mashqlar xotira, koordinatsiya va fikrlashni mustahkamlaydi.

Intellekt - faqat bilim emas, imkoniyatlar to‘plami. Ko‘p hollarda intellekt deyilganda faqat bilimlar yig‘indisi tushuniladi. Aslida esa intellekt – bu muammoni hal qilish, tahlil qilish, xulosalash, strategik fikrlash qobiliyatidir. “Aqlli bola – bu yod olgan bola emas, balki o‘rganganini real hayotda qo‘llay oladigan boladir.” Boshlang‘ich yoshda bolaning miyasida neyron aloqalar tez shakllanadi. Bu davrda berilgan to‘g‘ri fikrlash yuki keyinchalik katta intellektual salohiyatga asos bo‘ladi. Fikrlash – miyadagi faoliyat shakli. Fikrlash bu – miyadagi taqqoslash, ajratish, umumlashtirish, sabab-topish kabi aqliy harakatlar yig‘indisidir [4]. Amaliy tajribalar va kuzatuvlardan ham fikrlashni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Oddiy ilmiy eksperimentlar yoki hayotiy muammolarni yechish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. Shuningdek, mantiqiy o‘yinlar, jumboqlar, shaxmat va sudoku kabi faoliyatlar bolalarning diqqatini jamlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Boshlang‘ich mакtab yoshidagi o‘quvchilarda fikrlash ko‘plab turlarga ega bo‘lib, ular orasida analitik fikrlash, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash va mantiqiy fikrlash muhim o‘rin tutadi [5]. Analitik fikrlash muammoni qismlarga bo‘lib tahlil qilishga, ijodiy fikrlash esa yangi va original g‘oyalar yaratishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash ma’lumotlarni baholash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi, mantiqiy fikrlash esa sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga yo‘naltirilgan. Undan quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin:

- Mantiqiy fikrlash
- O‘xshashlik va farqlarni aniqlash
- Sabab-oqibat aloqalarini tushunish
- Muammoni bosqichma-bosqich hal qilish

Masalan: “Agar bugun bulutli bo‘lsa, yomg‘ir yog‘adimi?” savoli bolaning mantiqiy zanjir qurishini talab qiladi. Yaratilayotgan kitob hara taraflama bo‘lishi kerak. Undan foydalanayotgan har qanday 7 yoshdan toki 11-12 yoshli bolaning xotirasi mustahkam va fikrlashi tez bo‘lib borishi kerak. Maqsad ham shu. Unda :

1. Ko‘p tomonlama topshiriqlar: faqat testlar emas, balki ochiq savollar, “nima bo‘lsa?”, “nima uchun?” kabi topshiriqlar.

2. Muhokama va dialog: bola o‘z fikrini og‘zaki ifoda qilgan sayin, fikrlash aniqlashadi.

3. Harakatga bog‘liq fikrlash: LEGO, qurish, chizish, modellashtirish – bular harakat orqali tafakkurni rivojlantiradi.

4. Vizual-mantiqiy rivojlantirish: suratlar, sxemalar, diagrammalar asosida topshiriqlar bolalarning ko‘rvu tafakkurini oshiradi.

5. Savollarni o‘rgatish: faqat javob topishga emas, savol berishga ham o‘rgatish kerak. “Nega?”, “Qanday qilib?”, “Agar... bo‘lsa, nima bo‘ladi?” — bu savollar tafakkur kalitidir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu bola shaxs sifatida shakllanishining poydevori bo‘lib, aynan shu davrda uning fikrlash qobiliyati, aqliy salohiyati va intellektual yondashuvi shakllana boshlaydi [6]. Bolaning miyasi bu davrda o‘ziga xos “ochiq platforma” bo‘lib, unga qanday dastur yozilsa, kelajakdagi tafakkuri, qaror qabul qilish uslubi va muammoni hal etish qobiliyati shunga asoslanadi. IQ va fikrlash qobiliyati faqat tug‘ma emas, balki insonning atrof-muhit ta’siri va muntazam mashqlar orqali o‘sadi. Hatto stress yoki uyqusizlik sabab fikrlash qobiliyati pasaygan bo‘lsa ham, ongli aqliy mashqlar va meditatsiya yordamida bu yo‘qotilgan qobiliyatlarni tiklash mumkin. Bu jarayon miyadagi “aqliy plastiklik” deb ataladigan qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lib, yoshdan qat’iy nazar har kim yangi fikrlash usullarini o‘zlashtirishi va miyani qayta shakllantirishi mumkin. Ko‘pchilik odamlar fikrlashni oshirish uchun uzoq vaqt uzlusiz ishlash yoki o‘qishni afzal ko‘rishadi, ammo miyaga muntazam tanaffuslar berish, qisqa meditatsiyalar yoki yurishlar qilish fikrlash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, multitasking – bir vaqtida bir nechta vazifani bajarishga harakat qilish – fikrlash samaradorligini kamaytiradi, chunki miyaning diqqatni bir joyga jamlashi va chuqr fikrlashga kirishi IQni oshirishda muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar fikrlashni rivojlantirish uchun qulay vosita bo‘lsa-da, ularni me’yorida va ongli ravishda ishlatish muhimdir, aks holda ortiqcha foydalanish salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda fikrlash va IQni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Muammoli o‘qitish, amaliy mashqlar, metakognitiv yondashuv, sog‘lom turmush tarzi va emotsiyal barqarorlik birgalikda bolalarni tafakkurli, ijodkor va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Intellektual koeffitsientni rivojlantirish – bu faqat bilim berish emas, balki bolaning fikrlash mexanizmlarini ishga solish, ularni faol holatda tutishdir. Har bir savol, har bir topshiriq, har bir kitob sahifasi bolaning ongiga nafaqat ma’lumot, balki mustaqil fikrlash imkoniyatini singdirishi zarur.

Zamonaviy dunyo doimiy o‘zgarishda. Yaqin kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun bola tayyor javoblarni emas, savollarni qanday qo‘yishni, muammoni qanday tahlil qilishni, o‘z fikrini asoslab ayta olishni va eng muhimi, yangicha qarashni o‘rganishi kerak [7]. Ana shunda u o‘quvchi emas, fikrlovchi inson sifatida shakllanadi. Shunday ekan,

boshlang‘ich ta’limda intellektual rivojlanishga qaratilgan topshiriqlar, kitoblar, uslublar va metodikalar – bu oddiy dars qurollari emas, balki bolalar ongida nurli tafakkur yo‘lini ochuvchi kalitlardir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini va IQ darajasini rivojlantirish ularning nafaqat akademik muvaffaqiyatlari, balki kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun ham juda muhimdir. Fikrlash va intellektual rivojlanish faqatgina tug‘ma omillarga bog‘liq emas, balki atrof-muhit, tarbiya, o‘qitish metodlari va bolalarning kundalik hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq jarayonlardir. IQni oshirish va fikrlashni chuqurlashtirish uchun bolalarni mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashga rag‘batlantirish zarur. Bunda muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob metodlaridan foydalanish, mantiqiy o‘yinlar va interaktiv mashqlar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bolalarning diqqatini jamlash, multitaskingdan saqlanish va muntazam tanaffuslar qilish kabi ongli strategiyalar fikrlash sifatini oshiradi.

Emotsional barqarorlikni ta’minalash, sog‘lom turmush tarzi va meditatsiya kabi usullar esa miyaning samarali ishlashiga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri va me’yorida qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, IQ va fikrlashni rivojlantirish kompleks va uzlusiz jarayon bo‘lib, uni bolalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirish lozim. Bu yo‘lda o‘qituvchilar, ota-onalar va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim rol o‘ynaydi, chunki ular birgalikda bola uchun eng qulay va rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi kerak. Natijada, bunday yondashuv yosh avlodni yanada tafakkurli, ijodkor va muvaffaqiyatli shaxs sifatida tarbiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.
2. Hasanboeva O. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU, 2019.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1983.
4. Anderson L.W., Krathwohl D.R. Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.
5. Marzano R.J. The Art and Science of Teaching. – ASCD, 2007.
6. Xolmurodova M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Ziyonashr”, 2021.
7. Jononov R. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi. – Andijon: AndMIU, 2022.